

## Badiiy Matn Va uning Lingvopoetik Xususiyatlari

*Berdiyev Xusan Xolnazarovich*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ko‘p asrlik tarixga, o‘z taraqqiyot va takomil bosqichlariga ega bo‘lgan she‘riyatimizning janriy, uslubiy, badiiy xususiyatlari tadqiqi borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning yoqlangani, o‘nlab risola, qo‘llanma hamda ko‘plab ilmiy maqolalarning chop etilgani fikrimizning dalilidir. Keyingi paytlarda mazkur jarayonning bir muncha jonlangani quvonarli holdir. Zero, badiiy matnning kompozitsion va mazmuniy qurilishini teran idrok etish, uni filologik talablar darajasida tahlil qilish va tushunishda she‘riy san’atlarning zalvorli o‘rni bor.

**Kalit so‘zlar:** lingvopoetik tahlil, badiiy matn, she‘riy san’atlar, turkiy manbalar.

Ma‘lumki, jahon filologiya ilmida matnning lingvopoetik hamda sistem-struktur tadqiqi borasida L.P.Yakubinskiy, Y.N.Tinyanov, R.O.Yakobson, J.Mukarjovskiy, B.O.Eyxenbaum, L.V.Sherba, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, B.V.Tomashevskiy, M.B.Xrapchenko, N.S.Pospelov, V.P.Grigoryev, I.I.Kovtunova, A.Greymas, J.Jenett, M.Rifater, J.Ive, Y.Koseriu, A.A.Leontev, Y.M.Lotman, A.V.Chicherin, M.Baxtin, J.Munen, R.Pozner, M.L.Gasparov, Y.Farino, N.N. Ivanova, A.D. Grigoreva, K.N.Veliyev, L.V.Zubova, o‘zbek filologiyasida poetika tadqiqi 3 yo‘nalishda olib borildi: 1) adabiyotshunoslik, 2) uslubshunoslik, 3) lingvopoetika. She‘riy san’atlar va ularning badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o‘rni masalasida A.Rustamov, Y.Is‘hoqov, M.Shayxzoda, R.Orzibekov, A.Hojiahmedov V.Rahmonov va boshqa olimlarning tadqiqotlari maydonga keldi. Shuningdek, N.Mahmudov, I.K.Mirzayev, M.Xalilov, M.Yo‘ldoshev, G.Rixsiyeva kabi olimlar lingvopoetika masalalari yuzasidan ilmiy kuzatishlar olib bordilar.

Sultonmurod Olimov Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyotshunosligida klassik she‘riyatimizni badiiy san’atlar andozalari asosida tadqiq etishni boshlab berganligini ta’kidlaydi [Olimov, 1985: 11]. Darhaqiqat, ulkan adib, ayni paytda, yirik tadqiqotchi ham edi. Uning poetik san’atlar ustidagi izlanishlari keyingi davrda amalga oshiriladigan ko‘plab tadqiqotlarga turtki bo‘ldi. Bu ishlarning aksariyati esa aruz vaznidagi she‘rlar tadqiqiga bag‘ishlanganligi bilan xarakterlidir. Shu bilan bir qatorda, bunday izlanishlar mumtoz she‘riyatning mantiqiy davomi bo‘lgan XX asr poeziyasi, binobarin, barmoq vaznida yaratilgan she‘riyat misolida ham olib borildi [Afoqova, 1994: 24]. Biroq ilk turkiy manbalar, jumladan, “Devon-u lug‘otit turk”dagi adabiy parchalarda qo‘llanilgan she‘riy san’atlarning umumlashiruvchi xarakterdagi tadqiqoti hozircha e’tibordan chetda qolmoqda. Holbuki, ular biz uchun nafaqat dastlabki yozma yodgorliklar, shuningdek, badiiy salohiyati yuksak asarlar sifatida ham qimmatlidir. She‘riy san’atlarni o‘rganishda “Devon-u lug‘otit turk” materiallariga murojaat qilishning ahamiyati shundaki, bunday yo‘l tutish bilan, bir tomondan, mazkur asarlarning badiiy-estetik quvvatini belgilashga erishish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, turkiy poeziyada badiiyat takomilini tadrijiylik asosida o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

Ta’kidlash joizki, “Devon-u lug‘otit turk”dagi adabiy parchalarni o‘rganish, jumladan, poetik san’atlarning genezisi va evolyusiyasi hamda keyingi o‘zbek she‘riyatining shakllanishi va takomiliga ta’siri xususida qimmatli materiallar beradi. Ahamiyatli jihatlardan yana biri esa, prof. A.Hayitmetov asosli e’tirof etganidek, “Bu to‘rtliklar bilan chuqurroq tanishish, muallifning (M.Koshg‘ariyning – H.B.) qator ta’kidlari, unda keltirilgan she‘riy misollarning hammasi ham xalq og‘zaki ijodi namunasi emasligini ko‘rsatadi. Ularning ko‘plari ayrim avtorlarning, professional shoirlarning asarlaridir. Bu

<sup>1</sup> Бухарский государственный медицинский институт, Бухара, Узбекистан



esa, bizda, turkiy xalqlarda yozma adabiyot XI asrdan ancha oldin paydo bo'lgan, deyish uchun asos beradi" [Hayitmetov, 1974: 139-140].

Dastlabki turkiy adabiyot namunalari bilan bugungi o'zbek she'riyatini o'zaro munosabat va ta'sir nuqtayi nazaridan o'rganish hozirgi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb masalalardandir. Shuning uchun ularni mana shu kontekstda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bunda "Devon"ga ilova qilingan she'riy parchalarni tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular, yuqorida ta'kidlanganidek, to'laqonli poetik asarlardir. Bizningcha, "Devon"dagi ilovalarning badiiy-estetik ahamiyati va keyingi davr she'riyati taraqqiyotiga bo'lgan ulkan ta'sirini o'rganish masalasida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilishi lozim ko'rinadi:

**I. Adabiy parchalarning turi va janriy tasnifi masalasi.** H.Boltaboyev e'tirof etganidek, bu boradagi dastlabki ilmiy tajriba prof. A.Fitrat tomonidan amalga oshirilgan edi. Shuni nazarda tutib, H.Boltaboyev olimning izlanishlarini bugungi kun nuqtai nazaridan davom ettirish lozimligini to'g'ri ta'kidlaydi [Boltaboyev, 2002: 118-119]. Chunki A.Fitrat "Devon"da keltirilgan she'rlar tasnifida asosiy e'tiborni ularning mavzusi va shakliy xususiyatlariga qaratgan. Shunga ko'ra, A. Fitrat fikrlariga tayangan holda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir qancha jihatlar mavjud.

Adabiy parchalar janriy xususiyatlari jihatidan rang-barangdir. Chunonchi, *marsiya* (Alp Er To'nga), *madhiya* (Turkon xotun), *munozara* (Qish bilan Yoz), *masnaviy* (nasihat she'rlar), *rivoyat* (Iskandar Zulqarnayn) *she'r*, *qo'shiq*, *hikmatli so'z*, *maqol*, *topishmoq*, *murabba'* va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

**II. Band va bayt shaklidagi she'riy ilovalar badiiyati masalasi.** Kuzatishlarimiz poetik parchalarda ko'plab she'riy san'atlar (*mubolag'a*, *tashbih*, *tashxis*, *intoq*, *irsoli masal*, *tamsil*, *tarsi'*, *qofiya san'atlari* va b.) qo'llanganligini ko'rsatdi. Bunga dalil sifatida ayrim misollarni keltirish mumkin:

**a) Tajnis:**

Мінь kishi jolug'i bolub öziña

Bergalar özin anıñ köziña (III t., 21)\*

**b) Tarsi':**

Pishrilur jaqri qijaq

Tushg'urur jug'ri chanaq (III t., 39)

**v) Irsolu masal:**

Tegur meniñ sawimi bilgaliga aj,

Tinar qali atasa qisraq sini taj (III t., 173)

Mazkur o'rinda o'quvchilarda yorqin taassurot uyg'otish maqsadida "Qish bilan Yoz munozarasi" misolida ayrim fikrlarni bildirib o'tish lozim ko'rinadi. Zero, nisbatan olganda, "Devon-u lug'otit turk"dagi she'rlar orasida o'quvchiga yaxshi tanish bo'lgani va darslik, qo'llanmalarda keng foydalanilgani "Qish bilan Yoz munozarasi" hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, mazkur munozarani o'rganish hali-hanuz davom etayotir [Jo'rayev, 2000: 50; Azimov, 2002: 125-126]. Negaki, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari kengroq tarzda tadqiq etilgan emas.

Avvalo, she'r "Qish bilan Yoz munozarasi" deb atalishining o'ziyoq uning matni intoq va tashxis san'atlari asosiga qurilganligini ko'rsatadi. Zotan, qish bilan yozning munozara etishi aslida mumkin bo'lmagan hodisa. Badiiy tafakkur esa o'sha mumkin bo'lmagan hodisani (albatta, muayyan me'yoriylik asosida) mumkin qilib ko'rsatadi.

Munozara matni o'rganilar ekan, uni o'zaro bir-birini birlashtirib turuvchi uch qismdan tuzilgan, deyish mumkin. Negaki, qish bilan yoz uchrashishidan oldin muqaddima mazmunidagi bandlar

\* Qavs ichida keltirilgan rim raqamlari "Devon-u lug'atit turk" asarining tegishli tomini, arab raqamlari mazkur tomdagi sahifalarni ifodalaydi.



keltiriladi: avval shamollar keladi (keldi esin esnayu), keyin sovuq yetib keladi va dunyoni o‘rab olmoqchi bo‘ladi (tumlug‘ kelib qapsadi), yomg‘irli kunlar boshlanadi (quydi bulit yag‘murin), fasllar almashinadi. Nihoyat, qish yoz bilan uchrashadi (qish yay bila to‘qishti). Xuddi shunday “kichik muqaddima” yoz (bahor)ning qish bilan uchrashuvida ham mavjud. U tabiatdagi o‘zgarishlar silsilasi ta‘rifi orqali bayon qilinadi. Bunda qor va muzlarning erishi, tog‘lardan suvlar oqib, ko‘kimtir momiq bulutlar qayiqalar misoli suzib yurishi, oy tegrasida doira paydo bo‘lishi va yiroqdagi tog‘lar suv mo‘lligidan (atmosferada namlik miqdori oshishidan) xayollanib turgan ot ko‘zlari misol ko‘rinish berishi (va h. k.) kabilar tilga olinadi.

Qish bilan yoz uchrashuvi va munozarasi ta‘riflanar ekan, hatti-harakatlarda nizolashgan odamlarga xos holatlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Ularning bir-biriga tashlanishga shay turishi, yomon ko‘z bilan tahqir qilishlari, guyo “men kimu sen kim?” - degandek, o‘z xususiyatlari to‘g‘risida gapirishlari kabilar bayoni ma‘lum ma‘noda asarning asosiy qismini tashkil qiladi.

Uchinchi – xulosa qismi shundan iboratki, bu kurashda qish “yengiladi”, yoz “g‘alaba” qozonadi. Tabiat qaytadan jonlanadi, qorlar gilamga o‘xshash maysa-ko‘katlar bilan qoplanadi... turli-tuman gullar ochilib, yer yuziga chiroy bag‘ishlaydi, qushlar, qurt-kumursqalar inlaridan chiqib, to‘da-to‘da bo‘lib, hayot boshlaydilar.

*Asar nainki g‘oyaviy, ayni paytda, badiiy tomondan ham xarakterlidir. Unda qator lafziy va ma‘naviy san‘atlar qo‘llanilgan bo‘lib, faolligiga ko‘ra ishtiyoq, tashxis, tazod, intoq, takror, o‘xshatish, sifatlash, qofiya singarilar alohida ajralib turadi. Chunonchi, ba‘zi misollarni olib ko‘raylik:*

#### 1. Ishtiyoq, sifatlash va tashxis:

Keldi esin esnäjy

Qazqa tÿgal ÿcnäjy.

Kirdi budun kusnajy

Qara bulit kökräshÿr (II t., 259-260-b.).

Parchada bulutning qichqirib dahshat solishini momaqaldiraq ma‘nosida tushunish ham mumkin. Shuningdek, bu holat uning qoraligi – yovuz kuch sifatida, g‘azab bilan qichqirayotgan odam kabi ifodalanayotgani bilan bog‘liq.

#### 2. Tashxis, zulqofiyatayn, tazod, sifatlash:

Tumlig‘ kelib qapsadi,

Qutlug‘ jajig‘ tepsädi ... (I t., 430-b.).

Bu o‘rinda tazod kontekstual xarakterdadir. Chunki “tumlug‘” va “qutlug‘” so‘zlari lug‘aviy jihatdan qarama-qarshi ma‘no ifodalamaydi. Ammo “qutlug‘” so‘zi matnda ikkilamchi ma‘no tashimoqda va yozning issiq, yoqimli ekanini anglatmoqda. Shunga ko‘ra, u “tumlug‘” - sovuqning ziddidir.

#### 3. Intoq:

Qish jajg‘aru cÿwlanÿr

Er et menin jawruur

Jiglär jemä sawrijyp

Et jin taqi bekrishÿr (III t., 294-b.).

#### 4. Sifatlash, takror, tashxis:

Aj qopub ewlanÿb,

Aq bulit örlänÿb,

Bir-bir ÿzä öklänÿb,

Sachlub suwı eñräshÿr (I t., 258-b.).



5. Sifatlash, o‘xshatish:

Jag‘mur jag‘ub sachildi

Tyrlük chechäk suchuldi

Jinjy qapi achildi

Chindan jipar jug‘rusher (II t., 139-b.).

Bir qarashda, qish bilan yoz ezgulik va yovuzlik timsoli bo‘lib ko‘rinsa-da, hayot abadiyligida ularning har biriga xos jihatlari alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, qish o‘zi haqida so‘zlaganda, kasalliklar aynan shu faslda yo‘qolishi, qirg‘inbarot urushlar tinishi, yog‘ingarchiliklarning aloqibat ezgulikka xizmat qilishi – bug‘doy (ashlig‘), tariq (tarig‘) singarilar mo‘l-ko‘lligiga omil bo‘lishini aytadi. Bir qarashda, bu she‘r uyg‘onish fasli bahorga madhiya bo‘lib tuyuladi. Bir qarashda esa, tabiat hodisalari oldida ojiz inson taassurotlari sifatida tasavvur uyg‘otuvchi mazkur munozara ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan she‘riyatning mukammal va betakror namunalaridan biridir. Xuddi shuningdek, “Devon-u lug‘otit turk”da nasrning qadimgi namunasi sifatida manba bo‘la oladigan namunalar ham keltirilgan. Buni Iskandar Zulqarnayn va turk hoqoni Shu qo‘shinlari to‘qnashuvi haqidagi materiallarda kuzatish mumkin.

To‘g‘ri, fotih Iskandar haqidagi rivoyatlarning yozma adabiyotga kirib kelish jarayoni turli davrlarda yashab o‘tgan ijodkorlarning ma‘lum maqsadni ko‘zda tutilganligi bilan bog‘liqligi, shubhasiz. Uning zafarli yurishlari, favqulodda tadbirkorligi, ayni paytda, turklar zaminida talofat ko‘rib, sulh tuzishga majbur bo‘lganligi haqida ham ko‘plab rivoyatlar paydo bo‘lgan.

“Devon-u lug‘otit turk”dan o‘rin olgan nasriy parchalarning e‘tiborli tomoni shundaki, ular bir-birini to‘ldiradi, yaxlit asarning bo‘laklari sifatida taassurot uyg‘otadi.

Ma‘lumki, Iskandar Zulqarnayn faoliyati bilan bog‘liq rivoyatlar birinchi jilddagi *öga* (tajribali, aqlli, ko‘p yashagan odam (117), *ujg‘ur* (135), *chigil* (374), *tutmach* (422); uchinchi jilddagi *turkman* (419-423) so‘zlari izohini berishda keltirilgan.

Nasriy parchalarning bir-biriga aloqadorligini quyidagilarda ham ko‘rish mumkin:

**1. Iskandar Zulqarnaynning harbiy yurishi va turk hoqoni Shu askarlari bilan to‘qnashuvi tasviri mavjudligi.** Chunonchi, “Zulqarnayn Chinga kelib yetganda turklar xoni urushish uchun yosh yigitlardan iborat bir guruh askarni yo‘lladi. Ular kechasi Zulqarnaynning oldingi askarlariga hujum qildilar va yengdilar» (I t. 117). “Zulqarnayn uyg‘ur viloyatiga yaqinlashgach, turk xoqoni unga to‘rt ming odamni yo‘lladi” (I t. 135).

**2. Zulqarnayn nomining keltirilishi.** “Devonu lug‘otit turk” asari I t., 117 – betda to‘rt marta, 422 – betida ikki marta, shuningdek, III t., 419 - 423 – betlarida o‘n bir marta Zulqarnayn, Iskandar Zulqarnayn shakllarida uchraydi (ko‘rsatilgan sahifalarning barchasida rivoyat keltirilgan).

**3. Ba‘zi joy, urug‘-qabila, xalq, taom (va b.) nomlari paydo bo‘lishining Iskandar yurishlari bilan bog‘lab talqin qilinishi.** «Turk askarlaridan biri Zulqarnayn askaridan birini qilich bilan urib kindigigacha ikkiga ajratib yubordi. "O‘lgan askarning belbog‘ida oltin hamyon bor edi. Hamyonga qilich tegib kesildi. Undan qonga bo‘yalgan oltinlar yerga sochildi. Ertasi ertalab turk askarlari qonga bo‘yalgan oltinlarni ko‘rib, bir-birlariga «bu nima?» deyishar va altun qon – «qonli oltin» deb aytishar edi». Bu joydagi katta tog‘ shu ism bilan ataldi (I t., 117). Bu nomning keyinroq Altunxan deb ketilgani shu rivoyatga aloqador boshqa parchada ham ta‘kidlangan (Qarang: Koshg‘ariy, III t., 422), «Uyg‘ur-Zulqarnayn turk shohi bilan sulh qilganda qurgan besh shaharlik viloyat ismi» (I t., 135). Chigil so‘zi haqida shunday deyiladi: «Zulqarnayn arg‘ular shahriga yetganda qattiq yomg‘ir yog‘ib, yerlar loy, botqoq bo‘lib ketgan va Iskandar yurolmay qiynalgan. U xafa bo‘lib, forscha «in chi gil ast» - bu qanday loy, bundan qutulolmaymiz, deb g‘azablangan. So‘ng u yerda bir bino qurishga buyurdi, so‘ng bu kunlarda chigil deb ataluvchi qo‘rg‘on bino qilindi. Shu yerda yashovchi turkiy qabilalar ham shu nom bilan (chigiliy) deb ataldilar» (I t., 374).



**Turkman** so‘zi haqida. *“Turkman – bular o‘g‘uzlardir. Bu nom bilan atalishida ularda bir hikoya rivoyat bor: Zulqarnayn kelgach, bular unga idrokli odamlar ko‘rindi. Ularda turklarning nishonasi bor edi. Ulardan so‘ramasdan ilgariroq turkmonand, dedi. Bular turklarga o‘xshashdir, demakdir. Shundan so‘ng bu nom bu kungacha ularga nom bo‘lib qoldi”* (III t., 422).

**Tutmach** so‘zi haqida. *“Tutmach – turklarning mashhur ovqati. Bu ovqat Iskandar Zulqarnaynga nisbatli ovqatdir. Shundayki, Iskandar zulmatdan chiqqach, oziqlari kamayib qolgan odamlar ochlikdan qo‘rqib, unga: bizni och qo‘yma, och tutma mazmunida bizni tutma ach, qo‘yib yubor, bizlar yurtimizga ketaylik, deganlar. Iskandar bilimdonlar bilan kengashgan va ular shu ovqatni tayyorlaganlar”* (I t., 422).

**4. Sulh haqidagi e‘tiroflar.** *“Shundan so‘ng Zulqarnayn turk shohi bilan sulh tuzdi”* (I t., 117). *“Zulqarnayn turk shohi bilan sulh qilganda qurgan besh shaharlik viloyat”* (I t., 135). *“So‘ng Zulqarnayn shu nom bilan sulh tuzdi”* (III t., 422).

**5. Uyg‘ur shaharlarining paydo bo‘lishi ta‘rifi.** Eslatilganidek, sulh tuzilgandan keyin besh shaharlik viloyat vujudga keltiriladi. M. Koshg‘ariyning yozishicha, Sulmi, Kuju, Beshbaliq, Janbaliq, Yangibaliq shaharlari shunda paydo bo‘lgan (I t., 136). Bu ma‘lumot asarning III tom 422-betidagi parchada *“Zulqarnayn Shu bilan sulh tuzdi. So‘ng uyg‘ur shaharlarini bino qild”* tarzida uchraydi.

**6. Iskandar va turk shohi – Shu qo‘shinlari to‘qnashuvi uyg‘urlarga yaqin joyda bo‘lib o‘tganligi haqidagi ma‘lumotlar.** *“Muhammad Jakir To‘qqaxonning o‘g‘li Isrofil To‘g‘ontekin otasidan menga shunday xabar qildi (ya‘ni, otasi so‘zlab berganini aytdi): “Zulqarnayn uyg‘ur viloyatiga yaqinlashgach, turk hoqoni unga to‘rt ming odamni yo‘lladi”* (I t., 135). *“Shoh Shu Chinga yetdi. U Zulqarnayn orqasiga tushgan edi. Uyg‘urlarga yaqin bir yerda Shu Zulqarnaynga askar yubordi”* (III t., 422). *“Devon-u lug‘otit turk”ning I tom 117-betida keltirilgan rivoyatda esa, “Zulqarnayn Chinga kelib yetganda turklar xoni urushish uchun yosh yigitlardan iborat bir guruh askarni yo‘llagani”* aytiladi. Bunda ham Chin deyilganda, uyg‘urlar yashaydigan joy tushuniladi. Negaki, M. Koshg‘ariyning *“Tawg‘ach”* so‘ziga izoh berishicha, *“Chin aslida uchtadir: 1. – Yuqori Chin – bu sharqda bo‘lib, bunga Tawg‘ach deyiladi. 2. – O‘rta Chin. Buni Xitoy deyiladi. 3. – Quyi Chin, buni Barxan deyiladi va u Qashqardadir, tawg‘ach-uyg‘ur. U “tat”dir. Ular Chin, ya‘ni Tawg‘achda yashaydilar”* (I t., 423).

Umuman, *“Devon-u lug‘otit turk”*da uchraydigan Iskandar Zulqarnayn bilan bog‘liq rivoyatlar qiyoslab o‘rganilganda, ularda yana bir qancha mushtarak jihatlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Bu - birinchidan. Ikkinchidan, ularda garchi Iskandarning bosqinchilik yurishi salbiy hodisa sifatida ko‘rinsa-da, u sulh yo‘lini tutgan (majbur bo‘lsa-da) va shaharlar bunyod qilgan kishi sifatida ta‘riflanadi.

Bu qaysidir ma‘noda keyingi davrda yaratilgan «Iskandarnoma»larga turtki bo‘lgan bo‘lishi ehtimol.

Ayni holat, o‘z navbatida, mazkur masala bo‘yicha yangi-yangi tadqiqotlar olib borilishi lozimligini ko‘rsatadi.

**III. Nazariya bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi atamalarning “Devon-u lug‘otit turk”da mavjudligi masalasi.** Bunda epik va lirik asarlar turi, vazni va o‘lchovini ifodalovchi quyidagi kabi atamalar asosida o‘rganish muhim ko‘rinadi:

**Etuk** – hikoya, ertak (biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham qo‘llanilishi aytilgan) (I t., 98).

**Otko‘nch** – hikoya (I t., 197).

**Saw.** Bu so‘z hikmat, qissa, hikoya, risola, xat, kitobcha, so‘z, nutq singari qator ma‘nolarda ishlatilishi ta‘kidlangan (III t., 168).

**Jir** – g‘azal, maqom, kuy (III t., 156).

**Kog** – she‘rning vazni, o‘lchovi (III t., 144).

**Tabzug‘.** Bu so‘z topishmoq ma‘nosini ifodalaydi (I t., 429).



Shuningdek, bular bilan bog‘liq «sawladī», «otkundī», «kogladi» singari qator so‘zlar ham uchraydi va hikoya aytish, ulug‘larning hikmatini keltirish, rivoyat kabi ma’nolarni beradi.

Demak, ma’lum bo‘ladiki, turkiy adabiyot va adabiyotshunoslikning tadrijiy rivojlanishini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asari katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов А. «Девон»даги мунозара жанри хусусида // Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни (халқаро конференция материаллари) – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002, б. 125-126.
2. Афоқова Н. Абдулла Орипов лирикасида бадиий санъатлар. – Бухоро: БухДУ, 1994.
3. Болтабоев Х. «Девону луғотит турк»даги манзум параларнинг адабий таснифи // Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни (халқаро конференция материаллари) – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002.
4. Жўраев О. Туркий тилларда «ёз» сўзи ҳақида.// Адабиёт кўзгуси (илмий тўплам), Тошкент, 2000, №5, б. 50.
5. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк (“Туркий сўзлар девони”). Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. – Тошкент. Уч томлик. I том 1960; II том 1962; III том 1963.
6. Олимов С. Алишер Навоий асарлари таржимасида бадиий санъатларни қайта яратиш ва табдил қилиш масалалари. Номзодлик диссертацияси. – Тошкент, 1985.
7. Ҳайитметов А. Ҳаётбахш чашма. – Т., 1974, б. 139-140.

